

## “O‘zekspomarkaz” Milliy ko‘rgazmalar markaziga talabalarning tashrifi

Joriy yilning 5-7 aprel kunlari Rossiya Federatsiyasi Sanoat va savdo vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan ilk bor tashkil etilgan “INNOPROM-2021” xalqaro sanoat ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tmoqda. Bu xalqaro sanoat ko‘rgazmasida institutimizning “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlarimiz ham faol ishtirok etishdi. Ayniqsa, talaba yoshlarimiz ko‘rgazmaning asosiy bo‘limlaridan: transport va energetika mashinasozligi, shaharlar uchun texnologiyalar, metallurgiya va materiallar, plastmassa va kauchuklar kabi qismlaridan mutaxassislariga o‘zlarini qiziqtirgan savollar berib, qoniqarli javob olishdilar.



**YBIB bo‘yicha dekan muovini K.Usmonov axboroti  
TIQXMMI matbuot xizmati**